

ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИ  
ОЛИЙ ТАЪЛИМ, ФАН ВА ИННОВАЦИЯЛАР ВАЗИРЛИГИ  
БУХОРО ДАВЛАТ УНИВЕРСИТЕТИ  
АРХЕОЛОГИЯ ВА БУХОРО ТАРИХИ КАФЕДРАСИ

**БУХОРО ТАРИХИ МАСАЛАЛАРИ**  
(Энг қадимги замонлардан ҳозиргача)

*мавзусида Республика миқёсидаги илмий-амалий конференция*

**МАТЕРИАЛЛАРИ**

**2024 йил 10 май**

**Бухоро – 2024**

Илмий-амалий анжуман Бухоро тарихи, манбашунослиги, тарихшунослиги, археологияси, этнографияси, нумизматикаси, шаҳарсозлиги, маданият ва санъати соҳаларида амалга оширилётган энг янги илмий натижаларни илмий жамоатчиликка етказиш, фан ва таълимнинг узвий боғлиқлигини кучайтириш мақсадида Бухоро давлат университетида **2024 йил 10 май** куни **“БУХОРО ТАРИХИ МАСАЛАЛАРИ”** (ЭНГ ҚАДИМГИ ЗАМОНЛАРДАН ҲОЗИРГАЧА) мавзусидаги Республикао миқёсида илмий-амалий конференция белгиланган тадбирларни амалга ошириш мақсадида ўтказилди.

Ушбу илмий тўплам кенг илмий жамоатчилик, Бухоро тарихи билан қизиқувчилар, тарихчилар, магистрантлар ва талаба ёшларга мўлжалланган

**Масъул муҳаррир:**

**БухДУ профессори, тарих фанлари доктори**

**Ҳ.Ҳ.Тўраев**

**Таҳрир хайъати ва аъзолари:**

О.Х.Хамидов - Бухоро давлат университети ректори, и.ф.д., профессор

Т.Х.Расулов - илмий ишлар ва инновациялар бўйича проректор, ф.ф.д., профессор

А.А.Болтаев - Тарих в юридик факультети декани, ф.ф.д., доцент

Ф.У.Темиров - Археология ва Бухоро тарихи кафедраси мудири, т.ф.ф.д (PhD) доцент

С.И.Иноятов – Бухоро давлат университети профессори, т.ф.д.

М.И.Ниязова - Археология ва Бухоро тарихи кафедраси доценти, т.ф.н

М.Б.Қурбонова - Археология ва Бухоро тарихи кафедраси доценти, т.ф.н

Ф.Ҳ.Бобоҷонова - Археология ва Бухоро тарихи кафедраси доценти, т.ф.н

А.Ҳ.Болтаев - Археология ва Бухоро тарихи кафедраси доценти, т.ф.ф.д (PhD)

Б.Б.Болтаев - Археология ва Бухоро тарихи кафедраси катта ўқитувчиси, т.ф.ф.д (PhD)

О.И.Ражабов - Археология ва Бухоро тарихи кафедраси катта ўқитувчиси,

Ш.Ў.Носиров – Археология ва Бухоро тарихи кафедраси ўқитувчиси,

**Тўпловчи ва нашрга тайёрловчилар:**

**Темиров Ф.У. –** Археология ва Бухоро тарихи кафедраси мудири

**Умаров Б.Б. –** Археология ва Бухоро тарихи кафедраси ўқитувчиси

**Носиров Ш.Ў –** Археология ва Бухоро тарихи кафедраси ўқитувчиси

Мазкур тўплам Бухоро давлат университети Илмий Кенгашининг 2024 йил 4 майдаги  
9 – сонли қарори билан нашрга тавсия қилинган.

*Илмий-амалий анжуман материалларида ёритилган тарихий жараёнлар,  
маълумотлар, чиқарилган хуносалар, манба ва адабиётлар учун муаллифларнинг  
ўзлари масъул ва жавобгардир*

## **Бухоро тарихи масалалари (энг қадимги замонлардан ҳозиргача)**

2. Абулқосим Фирдавсий. Шоҳнома. Тошкент. “Ғафур Ғулом номидаги адабиёт ва санъат” нашриёти. 1984. [www.ziyouz.com/kutubxonasi](http://www.ziyouz.com/kutubxonasi)
3. Абу Райхон Беруний. Танланган асарлар. 1 – том. Т. Фан. – Б. 215 - 317
4. Умар Хайём. Наврӯзнома,. Т. “Мехнат”, 1990, 54-бет.
5. Махмуд Қошғарий. Девону лугатит турк. I том Ўзб ССР Фанлар Академияси нашриёти. 1960. – Б. 214 – 215; Махмуд Қошғарий. Девону лугатит турк. II том Ўзб ССР Фанлар Академияси нашриёти. 1961. – Б. 427; Махмуд Қошғарий. Девону лугатит турк. III том Ўзб ССР Фанлар Академияси нашриёти. 1963. – Б. 46; [www.ziyouz.com/kutubxonasi](http://www.ziyouz.com/kutubxonasi)
6. Б. Тўхлиев. Юсуф Хос Ҳожибининг Қутадғу билиг асари. Тошкент. Ўзбекистон. 1991. – Б. 60
7. Умар Хайём. Наврӯзнома, “Мехнат”, 1990, 54-бет.
8. Бухоро шарқ дурдонаси /муаллифлар жамоаси. –Тошкент: Шарқ, 1997. –Б 89 – 93
9. У. Қорабоев. Ўзбек халқи байрамлари. - Тошкент: Шарқ, 2002. – Б. 240
10. О. Бўриев: Хўжамбердиев Т. Ўзбек халқи боқий қадриятлари. - Карши: Насаф, 2005.-Б. 195

## **BUXORODA TARIXIY YODGORLIKLARINING HOLATI VA ULARNI TA'MIRLASH MASALALARI**

**Nafisa Hayotova Zakirovna  
Buxoro Davlat Universiteti dotsenti,t.f.f.d.(PhD)**

Buxoro tarixiy qiyofasini saqlab qolgan qadimgi shaharlardan biri hisoblanadi. Zero, hududda kechgan turli tarixiy jarayonlar asrlar davomida bunyod etilgan me'moriy yodgorliklarning saqlanib qolishiga ta'sir ko'rsatgan. Islom dinigacha bo'lgan boy me'moriy meros va o'rta asrlarda bunyod etilgan ko'plab me'moriy inshootlar bugungi kunga qadar o'z ahamiyatini yoqtogani yoq. O'zbekistonda saqlanib qolgan arxitektura yodgorliklari kabi Buxorodagi me'moriy inshootlar asosan islom madaniyatiga oid hamda aholi uy-joylari bilan ifodalangan.

Buxoro viloyati madaniy meros obyektlarini muhofaza qilish boshqarmasi joriy arxiv manbalarining dalolat berishicha, Buxoro hududida mavjud qadimgi me'moriy yodgorliklardan aksariyat qismi davlat muhofazasiga olingan[1]. Buxoro vohasida 800 dan ziyod memoriy obidalar mavjud bo'lib, shaharda 347 ta qadimiy memoriy obidalar saqlanib qolgan[2]. Ushbu saqlanib qolgan tarixiy meros turli davrlarda bunyod etilgan bo'lib, yigirma besh asr mobaynida me'morchilik rivojini namoyon etadigan inshootlarning nodir majmuasini o'zida jamlagan. Hududdagi ko'plab tarixiy yodgorliklar ta'mirdan chiqarilgan hamda o'zining ikkinchi hayotini boshlagan, qolgan qismi reja asosida o'rganilish bosqichida bo'lib, ta'mirlanmoqda.

Bilamizki, bugungi kungacha saqlanib qolgan me'moriy yodgorliklarning hammasi o'z davri me'morchilik yutuqlari va ilg'or texnologiyalari asosida bunyod etilgan. Biroq, vaqt o'tishi bilan, hududda kechgan turli tarixiy jarayonlar, tabiiy iqlim sharoitlari va inson faoliyatining ta'siri natijasida me'moriy yodgorliklar zarar ko'rgan. Bu omillar ta'sirida yodgorliklarning nurash jarayoni doimiy ravishda ortib borgan va ularni saqlab qolish vazifasi, ularning texnik holatini muntazam nazorat qilish, ilmiy asoslangan holda ta'mirlash mutaxassislar tomonidan olib borilishini talab etadi.

Buxoroda tarixiy yodgorliklarni saqlab qolish va ta'mirlash Buxoro viloyati madaniy meros ob'yektlarini muhofaza qilish boshqarmasi tomonidan amalga oshiriladi. Boshqarma 1994 yilda O'zbekiston Respublikasi Madaniyat ishlari vazirligi qoshidagi Tarix va madaniyat yodgorliklarni saqlash ilmiy-ishlab chiqarish Bosh boshqarmasining № 94-sonli buyrug'iiga asosan “Madaniy meros ob'yektlarini muhofaza qilish va ulardan foydalanish Buxoro viloyat inspeksiyasi” sifatida tashkil qilingan va 1995 yil 20 fevralda Davlat ro'yxatiga olingan[3]. Boshqarma me'moriy yodgorliklar nazoratini amalga oshirib, reja asosida tarixiy obidalarni restavratsiya ishlari nazoratini olib boradi.

## **Республика миқёсидаги илмий-амалий конференция**

Mutaxassislarning fikricha, me'moriy yodgorliklarni buzilishiga olib keladigan umumiy sabablariga ko'ra, uch guruhga ajratish mumkin.

Vaqt o'tishi bilan tabiiy-iqlim ta'sirida yodgorlikning eskirishi, ya'ni dastlabki me'moriy qiyofasi sekinlik bilan yo'qolib borayotgan yodgorliklar kiradi.

Tuproqning zichlanishi natijasida yodgorlikning asosiga nuqsonlarning paydo bo'lishi, ya'ni tutib turish qobiliyati yo'qolib borayotgan yodgorliklar kiradi.

Yer osti suvlarining ko'talilishi natijasida yodgorlikning asosi suv ostida qolib, devorlar namlanishi natijasida g'ishtlar parchalanishi kuzatiladi. Namlik kuchaygan sari g'ishtlarning mustahkamligi (30 %gacha) kamayadi, qorishma buzilishi va uvalanishi natijasida devorning mustahkamligi kuchsizlanadi. Buning natijasida, qorishmaning uvalanishi kuchayadi, namlik oshgan sayin u yana chuqurlashib boradi[4].

Tadqiqotlarning ko'rsatishicha, Buxoro hududidagi aksariyat tarixiy yodgorliklar ikkinchi tipdagi tuproq ustida qurilgan. Tuproq tarkibi qurilish axlatidan va organik aralashmalardan iborat bo'lib, bino fundamenti tagida sun'iy asoslar qurilgan tag kursi supasi yoki boshqa muhandislik ishlari amalgalashib oshirilgan. Shuni aytish mumkinki, sovet davrida yangi yerlarni o'zlashtirish va sug'orish ishlarini ko'payishi, kanallar va suv havzalarining qurishi, yangi binolarning bunyod etilishi kabi omillar yer osti suvlari sathining ko'tarilishiga, tuproq namligi oshib yodgorlik pastki qismining sho'r bosishiga olib kelgan. Shu bilan birga sovet davrida tarixiy yodgorliklar holatini ko'zdan kechirish, kerakli vaqtida restavratsiya ishlari olib borilmaganligi hamda mutaxassis kadrlarni yetishmasligi yodgorliklarni saqlanishiga salbiy ta'sir ko'rsatgan.

Ma'lumotlarga ko'ra sovet davri oxiriga kelib, Buxorodagi ko'pgina tarixiy yodgorliklar holati qoniqarsiz va o'gir ahvolda bo'lган. Ammo mustaqillikka erishganimizdan keyin ham dastlabki yillardagi iqtisodiy muammolar, iqlim sharoitining salbiy ta'siri yodgorliklarni restavratsiya va konservatsiya qilish jarayonlarini qiyinlashtirdi. Mutaxassislarning fikricha, noqulay iqlim sharoiti bilan ajralib turadigan Buxoro shahridagi uch yuzdan ortiq tarixiy obidalar Qo'qon va Samarcand shaharlarining tarixiy yodgorliklariga nisbatan tez yemirilib borayotganligini ta'kidlashgan. Bundan tashqari, yozgi issiq havo hamda qishda ko'plab atmosfera yog'ingarchiliklari bo'lishi yodgorliklarga salbiy ta'sir qilgan. Buning natijasida Buxorodagi ko'pgina tarixiy obidalar, jumladan, Nodirdevonbegi madrasasi, Abdullazizzon madrasasi, Bolohovuz masjidi, Ulug'bek madrasalari tuproq eroziyasi tufayli zarar ko'rgan. Ulug'bek madrasasi tagidagi tuproqning notejisiga cho'kishi natijasida binoning old qismi, hovlidagi ayvondevorlar yorilib, shakli buzilgan. Bunday holatni Modarixon va Abdullaxon madrasalarini o'z ichiga olgan Qoshmadrasada bu holat yaqqol namoyon bo'lган. Shuningdek, tarixiy obidalarning tepe qismining yog'ingarchilik oqibatida yemirilishi va devor ostki g'ishtlarining atmosfera yog'inlari va yer osti sizot suvlarining ko'tarilishi natijasida zararlanishi ko'paydi.

Shu qatori cho'1 zonasida joylashgan Buxoroda chang-to'zo'nli quruq havo tarixiy obidalarga yomon ta'sir qilar, atmosfera yog'inlari yil davomida kam bo'lsada, lekin kimyoviy tarkibi yildan-yilga yomonlashib borayotganligi obidalar yemirilishini tezlashtirgan[6]. Buning ustiga 1976 yildagi zilzila ham obidalar mustahkamligiga putur yetkazdi. Jumladan, 1976 yil 8 aprel va 17 mayda bo'lib o'tgan qattiq zilziladan so'ng Mir Arab madrasa gumbazlari, peshtoqi, hovli ichidagi peshtoq shikastlangan. Keyinchalik madrasada tuzatish ishlari boshlanib, ikki yil davomida katta gumbazlar va ichki hovli peshtoqlari ta'mirlandi. Gumbazning ichki va tashqi qovurg'ali temir beton konstruksiyasi mustahkam qilib bog'landi[6].



Abdulazizzon madrasasasi(1651-1652-yillar). 2024 yil

Shahardagi ayrim madrasalarning umumiy holati ham tuproq eroziyasi bilan bo'qliq bo'lib, jumladan Ulug'bek madrasasining tashqi va ichki poydevorlari qoniqarsiz ahvolga tushib qolgan. Ushbu tarixiy yodgorlikda bugungi kunda restavratsiya ishlari olib borilmoqda. Inshootning tuprog'i notejis cho'kishi natijasida madrasaning old qismi, hovlidagi avyonni devorlar shakli buzilgan. Bunday holatni Rashid madrasasida ham ko'rish mumkin. Bino ostki g'ishtlarining yemirilishi atmosfera yog'inlari va yer osti sizot suvlarining ko'tarilishi yodgorlikning tashlandiq holatga tushishiga olib kelgan.



Ulug'bek madrasasasi (1417 yil). 2024 yil.

Yuqorida keltirilgan misollar tarixiy obidalarning turli ob'ektiv sabablarga ko'rva buzilganligi va ular asl qiyofasini tiklash restavrator mutaxassislar tomonidan ilmiy bilimlar va

## **Республика миқёсидаги илмий-амалий конференция**

tajribalarga tayanib, o'ziga xos alohida yondashuvni talab qiladi. Aytish kerakki, mustaqillik yillarida tarixiy obidalarning holatini saqlash va restavratsiya qilish ishlari olib borilgan bo'lsada, konstruktor va restavrator mutaxassislarning yetishmovchiligi, ba'zida xato amalga oshirilgan ishlar tarixiy obidalarga zarar yetkazdi. Ma'lumki, mutaxassislar Buxoroda tarixiy obidalarni tiklash borasida turli fikrlarni ko'rsatadilar. Birinchisi tarixiy yodgorlik qanday holatda yetib kelgan bo'lsa, shunday shaklda saqlab qolish, ikkinchisi, yodgorlikni ta'mir talab bo'lgan qismini ta'mirlash kerakligini aytib o'tadilar. Uchinchi guruh mutaxassislari har bir yodgorlikka alohida yondashuv lozimligini, ta'mir usulunu tanlashda tarixiy yodgorlikning alohida konstruktiv va badiiy xususiyatlari ziyon yetkazmay ta'mirlash ishlarini olib borish kerakligini aytadi. Ba'zida tarixiy yodgorlikni o'z holicha saqlash zarurligini ta'kidlashadi<sup>1</sup>.



Do'stum Chuhraog'osi masjidi (1585-1585-yillar) . 2024 yil

2020 yilga qadar amalga oshirilgan restavratsiya ishlarida sement qorishmasidan, binolarni yuqori qismini ta'mirlashda siment qorishmasi va gidroezoldan foydalanib kelinganligi tarixiy yodgorliklarni ham tepa qismini og'irlashishi va yog'ingarchilik bo'lganida beton qorishmasi namlikni tortishi oqibatida "qo'ziqorin" tarzida yoriqlarni paydo bo'lishi, keyingi yo'gingarchilik bo'lganida esa obidaga bu yoriqlar orqali yomg'ir suvining kirishi tarixiy obidaga katta zarar yetkazgan. Shu qatori bugungu kunda tarixiy yodgorliklarni ta'mirlash jarayonida yo'l yoki maydon bilan tarixiy obidani birlashtirib qo'yilganini ko'ramiz. Bunday holatni Kalon minoradan boshlab ko'pgina obidalarda ko'rishimiz mumkin. Bu esa yog'ingarchilikdan so'ng namlik bug' bo'lib qurishga ulgurmasidan tarixiy obida devoriga salbiy ta'sir etayotganligi va g'ishtlar nam tortayotganligini ko'rishimiz mumkin. Qadimdan tarixiy obida atrofi 1.5 metrlik supalar bilan o'ralgan bo'lib, ya'ni tushayotgan yomg'ir supaga tushib yerga tortilishi maqsad qilingan. Tartibsiz ravishda amalga oshirilgan ta'mirlash ishlari tufayli inshootning ayrim tarkibiy qismlari asta-sekin yaroqsiz holatga kelib qolmoqda. 2019-2020 yillarda ta'mirlangan Moxi Xosa saroyini ta'mirlash jarayonida usto restavrator tomonidan

<sup>1</sup> Usto restavrator Bobomurodov Baxtiyor Ochilovich bilan suhbat.

## **Бухоро тарихи масалалари (энг қадимги замонлардан ҳозиргача)**

xatoliklarga yo'l qo'yilishi sababli tarixiy obidaning tarixiyligi va badiyiligiga 28 mlrd zarar yetkazilgan. Shu qatori Havzi Qozi Kalon masjidida olib borilgan ta'mirlash ishlarida ustolar tomonidan eski ayvon buzilib, yangi ayvon qurilgani sababli obida tarixiyligiga 9 mlrd zarar yetkazilgan. Natijada jinoyat ishi ochilib, ma'sullar yodgorlik tarixiyligiga zarar yetkazganligi uchun javobgarlikka tortildi. Shu sababli ikki yarim ming yillik tarixga ega bo'lgan qadimiy shahrimizda tarixiy obidalarni boshqa hududlarga ko'ra ko'pligi mutaxassislar ma'suliyatini yanada oshiradi. Mamlakatimizda konstruktor - restavrator mutaxassislarning yetishmovchiligi bu masalada yanada chuqurroq e'tiborni talab qilmoqda.

Shuni ta'kidlash mumkinki, mustaqillik yillarda me'moriy yodgorliklarning batamom buzilishiga yo'l qo'ymaslik uchun konsruksiyalarning texnik holatini muntazam nazorat qilish hamda profilaktika tarzida restavratsiya va konservatsiya ishlarini bajarish yo'lga qo'yilgan. Bugunda tarixiy inshootlarni ta'mirlashda cement yoki gidroezol xom-ashyosidan foydalanish voz kechildi. Ma'lumki, restavratsiyaning nozik jihat qurilish materiali va texnologiyasini tanlash hisoblanadi. Restavratsiya jarayonida faqatgina inshootning qurilgan manbasiga mos ganch, qum va kuldan foydalanish amalga oshirilmoqda. Zamonaviy me'moriy ta'mirchilikda bir necha usuldan foydalanish amalga oshiriladi. Konservatsiya qilish ya'ni yodgorlikni o'z holicha saqlash yo'li qo'llaniladi. Restavratsiya- bu yodgorlikni badiiy qismlarni qisman tiklash hisoblanadi. Ba'zan tarixiy yodgorlikni to'laligicha tiklab, asl ko'rinishiga olib kelishga harakat qilinadi ya'ni tabiiy xom - ashylardan foydalanilgan holda obidani tiklashga harakat qilinmoqda. Shuni aytish lozimki, har bir tarixiy obidaga o'ziga xos tarzda yondashish talab etiladi. Zeroki, har bir yodgorlik turli davr va ma'lum bir sulola hukmronligi davrida bunyod etilgan.Uni ta'mirlash jarayonida ham bu jihatlarni e'tiborga olish muhim hisoblanadi.

O'zbekistonda Samarqand va Toshkent davlat arxitektura va qurilish institutlari faoliyat ko'rsatayotganligiga qaramasdan, tarixiy obidalarni ta'mirlash bo'yicha restavrator mutaxassislar yetishmasligi muammoligicha qolmoqda. Samarqand davlat arxitektura-qurilish universitetida 2018 yilda Arxitektura yodgorliklari rekonstruksiysi va restavratsiyasi deb nomlangan ta'lim yo'nalishi ochildi. 2023 yilda Samarqand davlat arxitektura-qurilish universitetida yangi Madaniy meros fakultetining tashkil etilishi bu sohani rivojlantirish borasida ta'lim sohasida amaliy ishlar yo'lga qo'yilganligini ko'rsatmoqda. Aytish mumkinki, tiklash-ta'mirlash, konservatsiyalash jarayonida qadimdam ma'lum bo'lgan texnologiyalardan foydalanishni yanada rivojlantirish davr talabi hisoblanadi. Shu bilan birga kadrlar tayyorlash muammosi yechimini topish ham muhim ahamiyat kasb etadi. Arxitektura yodgorliklari rekonstruksiysi va restavratsiyasi yo'nalishida ta'lim olayotgan kadrlar salohiyatini yanada oshirish maqsadida tarixiy obidalarni o'rgangan holda amaliyot soatlarini ko'paytirish ularning tajriba va ko'nikmasini oshirishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Buxoro viloyati madaniy meros obyektlarini muhofaza qilish boshqarmasi. 2022 yil.
2. Ўзбекистон. Шахарлар ва афсоналар. Тошкент: Давр нашиёти, 2014. – Б. 77.
3. Buxoro viloyati madaniy meros obyektlarini muhofaza qilish boshqarmasi. 2022 yil.
4. R.Abriyev. XX asrda O'zbekistonda arxitektura yodgorlilarining holati va ularni saqlash muammolari // "O'zbekiston tarixi". 2015 .№1. – В. 47.
5. O'MSIB MMOMQFIICHBB JA. AOOT "Ta'mirshunoslik": "Qo'shmadrasasi" madaniy meros obyekti kadastr ishi. Buxoro, 2010. 18-b.
- 6.Nazarov I.K.,Hayitov Sh.A. Buxoroyi sharif: tarixiy obidalar va ekologik omillar// "Insoniyatning ilmiy va madaniy merosi- uchinchi ming yillkka",buxoro va Xiva shaharlarining 2500 yilligiga bag'ishlangan xalqaro simpozium tezislari. 1997 yil 18-20 oktyabr, Buxoro-Xiva. Toshkent, 1997. 154-b.
- 7.Ўзбекистон миллий энциклопедияси. 1-жилд. Тошкент, 2000. - Б. 217.
- 8.<https://masjid.uz/buxoro-viloyati/167-buxoro-shahri/516-boloi-hovuz.html>

## *Республика миқёсидаги илмий-амалий конференция*

---

Shuxrat Yodgorovich Qudratov. BUXORO AMIRLIGIDA TADBIRKORLIKNING IPAK VA TO'QIMACHILIK SOHALARI FAOLIYATIGA DOIR AYRIM MA'LUMOTLAR.....	435
Userbayeva Feruza Inoyat qizi, Kamoliddinov Farrux Burxoniddin o'g'li. BUXORODA JADIDCHILIK HARAKATINING NAMOYONDALARI (SADRIDDIN AYNIY MISOLIDA) .....	437
Ergashev Suxrob Muxiddinovich. SOVET DAVRIDA BUXORO MAORIFI MASALASI ....	439
Д.Р.Норова. П.А. ГОНЧАРОВА “БУХОРО ЗАРДЎЗЛИК САНЪАТИ” КИТОБИ ХУСУСИДА.....	442
О.А.Исаев. СУРХОН ВОҲАСИГА АНДИЖОН, ФАРФОНА ҲАМДА БУХОРО ВИЛОЯТЛАРИДАН КЎЧИБ КЕЛГАНЛАР ВА ҚУЛОҚ ҚИЛИНГАН ҲЎЖАЛИКЛА ҲАҚИДА ҚИСҚАЧА МАЪЛУМОТ .....	443
Ризаев Бахтиёр Назарбоевич. БУХОРО ОБЛАСТИНИНГ ЯНГИ ЎЗЛАШТИРИЛГАН ЕРЛАРДА ТАШКИЛ ЭТИЛГАН ҲЎЖАЛИКЛАРИ ФАОЛИЯТИ.....	446
Utayeva Feruza Xolmamatovna. BUXORO TO'QIMACHILIK FABRIKASIDA KUTUBXONA, SPORT TO'G'ARAKLARI FAOLIYATI .....	448
Hayitov Shodmon Ahmadovich, Hasanova Habiba Yorqin qizi. BUXOROGA AVTOMOBIL, FUQARO VA HAVO TRANSPORTINING KIRIB KELISHI VA FLOTIYA TASHKIL ETILISHI TARIXIDAN .....	450
Қаҳрамон Кенжавич Ражабов. “Пахтакор” стадионидаги тартибсизликлар ҳамда ўзбек ёшларининг таъқиб этилиши (1969 йил апрель – сентябрь) .....	452
Murodova Dilrabo Shomurodovna. ARXIV HUJJATLARIDA BUXORO KONCHILIK VA GEOLOGIYA TEXNIKUMI FAOLIYATI.....	452
Haitov J.Sh. SOVET HOKIMIYATI YILLARIDA BUXORODA PAXTACHILIK TARMOG'INING RIVOJLANISHI (Buxoro viloyat davlat arxivni ma'lumotlari asosida) .....	461
Nasilloyev Sunnat Shavkat o`g`li. O'ZBEKİSTON SSRDA ILM-FAN SIYOSATI (OLIY TA'LIMDAGI 1943 YIL ILMIY TADQIQOTLARI TADQIQOTLARI MISOLIDA.).....	463
M.B.Siddiqov. IKKINCHI JAHON URUSHI YILLARIDA HARBIY XIZMATCHILARNING OILASIGA KO'RSATILGAN GAMXO'RLIK (BUXORO VILOYATI MISOLIDA).....	466

## **6-ШЎЬБА. МУСТАҚИЛЛИК ЙИЛЛАРИДА ЎЗБЕКИСТОНДА ВА ХОРИЖДА БУХОРО ТАРИХИ МАСАЛАЛАРИНИНГ ТАДҚИҚ ЭТИЛИШИ; ЯНГИ ИЛМИЙ ТАДҚИҚОТЛАР, НАШРЛАР ВА ИЗЛАНИШЛАР.....**

138 Boltayev Bobir Baxtiyorovich. BUXORO NEFTNI QAYTA ISHLASH ZAVODI TARIXI MUZEYI FAOLIYATIDAN BIR LAVHA .....	470
3.А.Шамсиева. “РАХТЗАНОН” МАРОСИМИ ЭТНОГРАФИК ТАҲЛИЛИ (БУХОРО ВОҲАСИ МИСОЛИДА).....	472
Асрор Пардаев. ҚАШҚАДАРЁ ВОҲАСИДА АҲОЛИНИ ИСТЕМОЛИ МОЛЛАРИ БИЛАН ТАЪМИНЛАШ БОРАСИДА АМАЛГА ОШИРЛИГАН ТАДБИRLAR .....	474
М.Ў.Юсупова. БУХОРОДА НИШОНЛАНАДИГАН БАЙРАМЛАРНИ ЎРГАНИШ БЎЙИЧА АЙРИМ МУЛОҲАЗАЛАР .....	478
Nafisa Hayotova Zakirovna. BUXORODA TARIXIY YODGORLIKALARINING HOLATI VA ULARNI TA'MIRLASH MASALALARI .....	481
Жўраев Шерали Ғулом ўғли. ТАРИХ ИЛМИЙ БЎЛИМИДАГИ АРХЕОЛОГИК ЭКСПОНАТЛАРИНИНГ ЎРГАНИЛИШИ .....	486
Qurbanov Bekjon G‘ayrat o‘g‘li. BUXORODAGI MIR ARAB MADRASASI TARIXI VA BUGUNGI KUNDAGI FAOLIYATI.....	489
Tuyev Fazliddin Erkinovich, Tolibjonova Muxlisa Behzodjonovna. BUXORO VILOYATINING SOG'LIQNI SAQLASH SOHASINING ISLOH QILINISHI VA TASHQI ALOQALARI. (1998-2001-YILLAR). .....	492
Муртазина Д.Р., Муртазин Эмиль Рустамович. ИССЛЕДОВАНИЕ ИСТОРИИ БУХАРЫ: ПУТЕШЕСТВИЕ ЧЕРЕЗ ГОДЫ НЕЗАВИСИМОСТИ .....	494

## **Бухоро тарихи масалалари (энг қадимги замонлардан ҳозиргача)**

Nosirova S.S. Nasimov D.B. AJDODLAR MEROSI - MATO HUNARMANDCHILIK NA'MUNALARINING ASRAB AVAYLASHNING DOLZARBLIGI .....	496
Kazakova Marifat Dexkanovna. OLIY TA'LIM TIZIMI RIVOJIDA BUXOROLIK AYOL OLIMALARNING O'RNI (BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI MISOLIDA) .....	500
Qurbanova Dilnora Nuriddin qizi. TARIX FANINI O'QITISHDA AXBOROT TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISH SAMARASI .....	502
Sobirov Umid Baxtiyorovich. O'ZBEKISTONDA BUXORO TARIXINI O'RGANISHNING DOLZARB MASALALARI .....	503
بررسی نقش بخارا به عنوان پایتخت فرنگی سامانیان سعیده کاظمی منش	505